

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

TASDIQLAYMAN

Farg‘ona davlat texnika universiteti

rektori _____ O‘.R.Salomov

“ _____ ” _____ 2025-yil

**08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura(PhD),
doktorantura(DSc) va mustaqil izlanuvchilikga kirish sinovida bilim darajasini
belgilovchi maxsus fanlarni**

**DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI**

Farg‘ona 2025

Ismanov I.N., Muminova E.A., Davlyatova G.M., Ilyosov A.A. 08.00.03
– **“Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni dasturi.** – Farg‘ona:
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 2025. – 12 b.

Kirish imtihoni dasturi va baholash mezonlari “Iqtisodiyot” kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilingan 2025-yil __-oktyabr, bayon №__ . Farg‘ona davlat texnika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2025-yil “_____” _____da bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqilgan va ma‘qullangan.

Ushbu imtihon dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-sonli “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qaroriga muvofiq tayyorlangan.

Taqrizchilar:

Umarov I.Yu.	-	Andijon davlat universiteti professori, i.f.d., prof.
Butaboyev M.T.	-	Farg‘ona davlat texnika universiteti professori, i.f.d., prof.
Kambarov J.X.	-	Qo‘qon universiteti prorektori, i.f.d., dots.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ajralmas qismi bo'lgan tarkibiy o'zgarishlar siyosatda ustuvor sohalar va sanoat tarmoqlarni jadal rivojlantirish asosida milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, uning raqobatga bardoshligini yuksaltirish, eksport salohiyatini kengaytirish maqsadlari ko'zda tutiladi. Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Xalqaro iqtisodiy raqobat texnik taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanadi va uning ta'sirida ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining doimiy yangilanib borish jarayoni davom etadi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari yangilanadi va sifati ortib boradi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasini 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-sonli Farmonida xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribalaridan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti univironlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini, iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarini, milliy qadriyat va xususiyatlarini, ma'naviy boyliklarini to'la hisobga oluvchi, mukammal iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojlana oladi. Prezidentimizning birinchi darajali e'tibori mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish deb ta'kidlab o'tgani ham bejiz emas edi. Darhaqiqat mamlakatning jahon xo'jaligi tizimiga faol kirib borishi iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish muammosiga alohida ahamiyat berilishini taqozo etadi. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida korxonalarni iqtisodiy salohiyatini oshirish, ya'ni texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ishlab chiqarish tizimlarini bunyod etishga o'ta muhim masala sifatida qarash zarurligi davr talabidir.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi mavqei va o'zni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda sanoatni rivojlantirish muammolarini ilmiy asosda hal eta oladigan ilmiy pedagogik kadrlarning o'zni va ishtiroki muhimdir.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturilga asoslanib mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko’tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv va integratsiya jarayonlari tezkorlik bilan borayotgan sharoitda sanoatni rivojlantirish sohasidagi xalqaro andozalarni mamlakatimizda qo’llash bo’yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning dolzarb masalasi bo’lib hisoblanadi.

Dasturda qo’yilgan mavzu va masalalar “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo’yicha talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo’yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Sanoat - milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog’i

Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o’rni. Sanoat-moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog’i. Mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’moli tovarlarini ishlab chiqaruvchi soha. Sanoat va aholining ish bilan bandligi masalasi. Sanoatning tarixiy rivojlanish yo’llari va asosiy yakunlari. O’zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko’rsatkichlari va ularning dinamikasi. Sanoatda iqtisodiy o’sish. Sanoat tarmoqlarining o’sishi tendensiyasi-elektr energiyasini ishlab chiqarish, neft va gaz qazib olish, po’lat va prokat rangli metallar va kimyoviy mahsulotlar, ishlab chiqarishi mashinasozlik va metallga ishlov berish sohasining mahsulotlari qurilish materiallari yengil va oziq-ovqat sanoatida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi. Jahon sanoat ishlab chiqarishida O’zbekiston sanoatining tutgan o’rni va strategik hamkorlikni kuchaytirish muammolari.

Sanoat tarmoq tuzilmasi va tarkibiy siljishlar

Tuzilma siyosati, uning mohiyati va ahamiyati. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog’ining shakllanishi. Sanoat tarmog’i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar. Sanoatning tarmoqlarga bo’linishi va tarmoq tuzilishi. Sanoat tarmoq tuzilishining ko’rsatkichlari. Sanoat tarmoq tuzilmasining progressivlik mezonlari. Sanoat tarmoq tuzilishini belgilovchi omillar. Tarmoq tuzilmasi o’zgarishining asosiy tendensiyasi. Sanoatning zamonaviy tarmoq tuzilmasi va uni takomillashtirishning asosiy yo’nalishlari. Tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish borasidagi yaqin va uzoq istiqboldagi ustuvor vazifalar.

Sanoatda zamonaviy boshqaruv tizimi

Boshqaruv ob’ektiv zaruriyat va maqsadga yo’naltirilgan jarayon sifatida. Sanoatni va umumiy iqtisodiyotni ilmiy asosda boshqarishni uyushtirish.

Sanoatni ilmiy boshqarishning muhim muammolari. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari. Bozor talablariga moslashtirilgan prognozlarni ishlab chiqish. Sanoatda barqarorlik tamoyili. Ishlab chiqarish va mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish. Boshqarishning ilmiylilik, tejamkorlik, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Sanoat boshqaruvining iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy va huquqiy usullari. Boshqaruvning zamonaviy tuzilishi. Boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy asosiy yunalishlari.

Sanoat ishlab chiqarishini bashoratlash va rejalashtirish

Prognozlash: mohiyati, ahamiyati, mazmuni. 2024-2030 yillarga mo'ljallangan bashoratlari va ularga erishishning asosiy yo'llari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari. Tarmoq va korxona darajasida sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishning xususiyatlari va uslubiy asoslari. Sanoat tarmoqlarining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarining ahamiyati va o'rni. Rejalashtirishning tamoyillari va usullari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalar tizimi. Reja – birinchi hujjat va rejalashtirishning natijasi sifatida. Rejalarning turlari: indikativ, strategik, biznes-reja. Ishlab chiqarish rejasini tuzib chikish va tasdiqlashni tashkil etish. Rejalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Sanoat iqtisodiyot ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarishining "ko'zgusi" sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi (umumlashtiruvchi va resurslar turi bo'yicha differensiallashtirilgan) va ularni hisoblash usuli. Qiyosiy (nisbiy) iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va ko'rsatkichlari. Keltirilgan harajatlar va ularni hisoblash usuli. Yillik iqtisodiy samara va uni hisoblash usuli. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari va yo'llari. Texnik va texnologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tashkiliy va xorijiy omillar. Sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

Sanoatda fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat

Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati. Fan-texnika rivoji va sanoatni tuzilishi jihatdan qayta qurish. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy

yoʻnalishlari. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish. Elektrlashtirishning moddiy asosi boʻlgan yoqilgʻi-energetika majmuasini rivojlantirish istiqbollari. Sanoat ishlab chiqarishini har tomonlama avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirish. Uning mohiyati, ahamiyati va asosiy yoʻnalishlari. Texnologiya, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar tushunchasi va ularni joriy etishning asosiy yoʻnalishlari. Bio va nanotexnologiyalar va chet el tajribasi. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash.

Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish

Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning oʻzaro bogʻliqligi. Konsentratsiyalashtirish, uning shakllari va koʻrsatkichlari. Bozor iqtisodiyotiga oʻtishda kichik va xususiy korxonalarning ustuvorligi. Mahalliyashtirish uning mohiyati va ahamiyati mazmuni. maxalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish - inqirozga qarshi choralar dasturining eng koʻplab masalalaridan biri ekanligi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va koʻrsatkichlari. Kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi koʻrsatkichlar. Sanoat korxona (firma)lari oʻrtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarining turlari va ularni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari. Diversifikatsiyalash. Uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni. Iqtisodiyotni, jumladan, sanoatni diversifikatsiya qilishning eng muhim ustuvor yoʻnalishi. Kombinatlashtirish: mohiyati, ahamiyati, shakllari va koʻrsatkichlari. Kombinatlashtirishning hozirgi ahvoli va istiqboli.

Sanoatda kadrlar va mehnatga haq toʻlash

Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi. Xodimlarni guruhlariga ajratish va kadrlarning zamonaviy tuzilmasini tashkil etish. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish. Kadrlardan foydalanishni takomillashtirish yoʻllari. Sanoat ishlab chiqarishi uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash. Oʻzbekiston sanoatida kadrlar salohiyatini kuchaytirishda chet el tajribasini keng qoʻllash. Mehnat va unga haq toʻlash. Xodimlar mehnatiga haq toʻlashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Tarif tizimi, uning mohiyati, ish haqini tashkil etish va tartibga solishning ahamiyati. Sanoat xodimlarini ijtimoiy himoya qilish muammolari.

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari

Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Oʻzbekiston sanoati asosiy fonlarining dinamikasi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va

tuzilmasi. Umumiy, texnologik tarmoq, hududiy tuzilmalar va ularning tarmoqlararo nisbatlari. Asosiy fondlarning strukturasiga ta'sir etuvchi omillar. Asosiy fondlarni baholash usullari. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi. Jismoniy va ma'naviy eskirish. Amortizatsiya siyosati va uni O'zbekiston Respublikasida amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Amortizatsiya ajratmalari: mohiyati, ahamiyati, ulardan foydalanishning normalari va yo'nalishlari. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari. Fond sig'imi va qaytimi. Ularning iqtisodiy samaradorligi. Ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari. Unga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish quvvatining tuzilmasi va dinamikasi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni o'lchash.

O'zbekiston sanoatining xomashyo manbai va uni joylashtirish

Sanoatda xomashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi. Xomashyo va yoqilg'i-energetika resurslari tushunchasi va ularni guruhlariga ajratish. Sanoat xomashyo bazasini kengaytirish uchun geologiya-qidiruv ishlari va tabiiy boyliklarni o'rganishning ahamiyati. Foydali qazilmalar zahiralarini turkumlarga ajratish. Mineral xomashyo va yoqilg'ilarni iqtisodiy baholash. O'zbekistonda mineral xomashyo, yoqilg'ilarni qazib olib va elektr energiyasi ishlab chiqarish dinamikasi. Sun'iy va sintetik materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish va takomillashtirish. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi. Sanoatda xomashyo, yoqilg'i va energiyani tejashning asosiy yo'nalishlari. Mineral xomashyova ulardan oqilona foydalanish.

Sanoat ishlab chiqarishining aylanma fondlari va mablag'lari

Aylanma fondlarning mohiyati va ahamiyati. Sanoat tarmoqlarida aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi. Aylanma fondlari elementlaridan foydalanish ko'rsatkichlari va mahsulotning material sig'imi. Moddiy resurslardan samarali foydalanish masalalari. Sanoatda material resurslarni tejashning asosiy yo'nalishlari va rezervlari. Moddiy resurslardan kompleks (har taraflama) foydalanish. Chiqindilardan yoki ikkilamchi xomashyo va materiallardan foydalanish. Aylanma mablag'lar va ularning mohiyati va ahamiyati. Aylanma va muomala fondlari. Ularning tarkibi va aylanish ko'rsatkichlari. Aylanma mablag'lar va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari. Eksportni rag'batlantirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirish - inqirozni oldini olishning asosiy sharti.

Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi

Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviy darajasi. Mahsulot (xizmatlar) sifatining tavsifi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlarini guruhlariga ajratish va nomenklaturasi.

Mahsulot sifati darajasini baholash usullari. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari. Mahsulot (xizmatlar) sifatini Jahon talabiga ko'tarish yo'llari. Mahsulot sifatini oshirishning texnologik, iqtisodiy, tashkiliy yo'nalishlari. Mahsulot sifatini yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish. Standartlar va standartlashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Xalqaro ISO 9001 standartlari. Sertifikatlar va sertifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati. Attestatsiya va nazorat etish masalalari.

Sanoatda tannarx, foyda va ishlab chiqarish rentabelligi

Qiymat va tannarx nazariyasi va ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari. Tannarx tushunchasi va turlari. Sanoat ishlab chiqarishi sifat ko'rsatkichlari tizimida tannarxning roli va tutgan o'рни. Tannarx elementlari va harajatlarini turkumlash, tannarx strukturasi va uni belgilovchi omillar. Foyda va unimaksimallashtirish. Foyda (daromad) tushunchasi. Foydaning tashkil topishi va taqsimlanishi. Rentabellik va uni oshirish yo'llari. Rentabellik tushunchasi, ko'rsatkichlari va uni baholash usullari. Mahsulot tannarxini pasaytirish manbalari va omillari. Ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish - inqirozga qarshi kurashning asosiy omili.

Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash

Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Baho — bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati. Bahoning funksiyalari, turlari va strukturasi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Baholashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish. Korxonalarning muayyan mavqeini saqlab qolish.

Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish

Sanoatni joylashtirish tamoyillari. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning mohiyati va ahamiyati. Sanoatni joylashtirish omillari. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos hususiyatlar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning o'ziga xos hususiyatlari. Ayrim korxonalarni joylashtirishning iqtisodiy asoslash usuli. Sanoatni joylashtirishdagi siljishlarning iqtisodiy samaradorligi. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish - ijtimoiy ishlab chiqarishning tashkil etishni muhim shakli sifatida. Sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish tamoyillari. Industrial iqtisodiyot ishlab chiqarishini joylashtirish omillari. Ayrim sanoat tarmoqlarini joylashtirishdagi o'ziga xos hususiyatlar. Maxsus iqtisodiy zona. Uning mohiyati ahamiyati, mazmuni.

**08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan
keyingi ta'lim institutining tayanch doktorantura (PhD)ga o'qishga kirish
uchun o'tkaziladigan yozma-og'zaki kirish imtihonida talabgorlarning
bilimini baholash mezonlari**

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni tanlangan ixtisoslik bo'yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, ilmiy-tahliliy fikrlash qobiliyati hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma-og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Talabgorlarning har bir savolga javobi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Bayon qilingan materialning to'liqligi;
2. Javobning imtihon savoliga mantiqan mosligi;
3. Javoblarning aniqligi va mantiqiy yaxlitligi;
4. Ilmiy-uslubiy tilda savodli bayon qilinishi, aniq ta'rif va atamalardan to'g'ri foydalanilishi;
5. Fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni amaliyot bilan bog'lay olish, ilmiy-amaliy ahamiyatini tushunish qobiliyati;
6. Hukumat qarorlari, tegishli davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tushunish darajasi;
7. Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va normativ-huquqiy asoslarni anglash darajasi;
8. O'z fikrini aniq va asosli bayon qila olish, mustaqil fikrlash hamda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondasha olish qobiliyati.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Talabgorlar imtihon biletida berilgan 4 ta savol bo'yicha javoblarni avval yozma tarzda bayon etadilar, so'ng ularning mazmunini imtihon komissiyasi huzurida og'zaki himoya qiladilar. Har bir savol uchun 25 ballgacha baho qo'yiladi (jami 100 ball).

Yozma va og'zaki qismlar alohida imtihon sifatida emas, yagona yozma-og'zaki imtihon natijasi sifatida baholanadi. Yozma javoblar yuqori saviyada bo'lgan taqdirda ham, agar og'zaki izoh yetarli bo'lmasa yoki yozma javobni tasdiqlamas, maksimal ball qo'yilmaydi.

Yozma va og'zaki javoblar o'zaro uyg'un bo'lishi lozim; biri ikkinchisiga zid bo'lgan holatlarda ball kamaytiriladi.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	qo'yilgan savollarga nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondashgan holda ilmiy qarashlar bilan ifoda etilgan javoblar keltirilgan hamda mustaqil fikr-mulohazalar va xulosalar bilan boyitilgan bo'lsa;
71-85 ball	savollarga to'liq javob berishga harakat qilingan, nazariy jihatdan to'g'ri va ijodiy yondashuv mavjud, biroq ayrim tushunchalar va ta'sir etuvchi omillarni bayon etishda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan yoki fikr va yechimlar to'liq asoslanmagan bo'lsa;
56-70 ball	savollar mohiyati yuzaki yoki qisman ochib berilgan, tegishli tushunchalar yetarli darajada yoritilmagan, fikr-mulohazalar va xulosalar to'liq bayon etilmagan bo'lsa;

0-55 ball	savollarga javob berilmagan, noto'g'ri talqin qilingan yoki masalaga izoh berilmagan hollarda
-----------	---

Imtihon komissiyasi zaruratga ko'ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo'nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari va ilmiy natijalarini qo'llash imkoniyatlari yuzasidan qo'shimcha savollar berishi mumkin.

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchi shakllariga o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbatda talabgorlarning ilmiy salohiyatini baholash mezonlari

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilikka o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat tanlangan ixtisoslik bo'yicha talabgorlarning nazariy tayyorgarligi, ilmiy-tahliliy fikrlashi, tadqiqot olib borish qobiliyati hamda kasbiy moslik darajasini aniqlash va baholash maqsadida o'tkaziladi.

Baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Suhbat ixtisoslik bo'yicha 4 ta savoldan iborat bilet asosida o'tkaziladi. Har bir savol bo'yicha 0 dan 25 ballgacha, jami 100 ball qo'yiladi. Talabgor bilet savollari bilan tanishib, zarur hollarda o'zi uchun qisqa yozma qaydlar tayyorlashi mumkin, biroq bu qaydlar baholash obyekti hisoblanmaydi. Baholash faqat talabgorning og'zaki javoblari va suhbat jarayonidagi fikrlari asosida amalga oshiriladi. Imtihon komissiyasi javoblarni aniqlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida qo'shimcha savollar berishi mumkin.

Talabgorlarning har bir og'zaki javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Javoblarning to'liqligi va mazmunan asoslanganligi;
2. Savollarga javoblarning mantiqan izchil va aniqlik bilan bayon etilishi;
3. Ilmiy-uslubiy tilda fikrni to'g'ri, ravon va aniq ifoda eta olish;
4. Tanlangan ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar chuqurligi va tizimlilik;
5. Tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bo'yicha tushunchaga ega bo'lish;
6. Fan va texnika yutuqlarini hamda dolzarb ilmiy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olish;
7. Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil yuritish va asosli xulosalar bera olish;
8. Komissiya savollariga tezkor, mantiqli va ishonchli javob qaytara olish.

Baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

86-100 ball	javoblar yuqoridagi mezonlarga to'liq javob bergan, chuqur, ilmiy asoslangan va tahliliy darajasi yuqori bo'lgan hollarda;
71-85 ball	javoblar asosan to'liq va to'g'ri bo'lib, ayrim kamchilik va noaniqliklarga yo'l qo'yilgan hollarda;
56-70 ball	javoblar qisman izchil bo'lib, ayrim savollar yuzaki ochilgan yoki ilmiy asos va tahlil yetarli bo'lmagan hollarda;

0-55 ball	javoblar yuzaki bo'lgan, savollarga mos emas yoki ilmiy saviya talab darajasiga javob bermagan hollarda.
-----------	--

Mazkur suhbat mezonlari doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilik shakllariga o'qishga qabul qilishda qo'llaniladi. Imtihon komissiyasi zaruratga ko'ra talabgorga tanlangan ixtisoslik, tadqiqot yo'nalishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar, obykti, predmeti, tadqiqot usullari hamda kutilayotgan ilmiy natijalar yuzasidan qo'shimcha savollar berishi mumkin.

08.00.03 – "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha imtihon savollari

1. Sanoat va uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi roli va o'rni.
2. Sanoat va aholining ish bilan bandligi masalasi.
3. Sanoatda iqtisodiy o'sish.
4. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi.
5. Jahon sanoat ishlab chiqarishida O'zbekiston sanoatining tutgan o'rni va strategik hamkorlikni kuchaytirish muammolari.
6. Sanoat tarmog'i tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.
7. Boshqaruvning obyektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida.
8. Sanoatni va umumiy iqtisodiyotni ilmiy asosda boshqarishni tashkil etish.
9. Sanoatni ilmiy boshqarishning muhim muammolari.
10. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati va vazifalari.
11. Prognozlash: mohiyati, ahamiyati, mazmuni.
12. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning mohiyati va ahamiyati, vazifalari va tamoyillari.
13. Sanoat tarmoqlarining joriy va istiqbolli faoliyatini rejalashtirishda shartnoma munosabatlarning ahamiyati va o'rni.
14. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari.
15. Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi (umumlashtiruvchi va resurslar turi bo'yicha differensiallashtirilgan) va ularni hisoblash usuli.
16. Sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.
17. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari.
18. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash.
19. Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi.
20. Mahalliy lashtirish uning mohiyati va ahamiyati, mazmuni.
21. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari.

22. Kooperativlashtirish tushunchasi, uning shakllari va darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
23. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli.
24. O'zbekiston sanoatida kadrlar salohiyatini kuchaytirishda chet el tajribasini keng qo'llash.
25. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.
26. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va tuzilmasi.
27. Asosiy fondlarni baholash usullari. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi.
28. Sanoatda xomashyo, uning hususiyatlari va turkumlanishi.
29. Sanoat xomashyo bazasini kengaytirish uchun geologiya-qidiruv ishlari va tabiiy boyliklarni o'rganishning ahamiyati.
30. Sanoatda xomashyo, yoqilg'i va energiyani tejashning asosiy yo'nalishlari.
31. Sanoat tarmoqlarida aylanma fondlarning tarkibi va tuzilmasi.
32. Sanoatda material resurslarni tejashning asosiy yo'nalishlari va rezervlari.
33. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviydarajasi.
34. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo'llari.
35. Sanoat ishlab chiqarishi sifat ko'rsatkichlari tizimida tannarxning roli va tutgan o'rni.
36. Tannarx elementlari va harajatlarini turkumlash, tannarx strukturasi va uni belgilovchi omillar.
37. Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati.
38. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati.
39. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning mohiyati va ahamiyati.
40. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”, 2019-yil 29-oktyabr, №O‘RQ-576.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 21.02.2024-yildagi PF-37-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 11-sentyabr 2023-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-noyabrdagi “Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PF-198-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PF-111-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-60-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-avgustdagi ““Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi №PQ-283-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktyabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-5262-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-dekabrdagi “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PQ-1236-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktyabrdagi “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-5262-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-dekabrdagi “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №PQ-1236-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Farg‘ona viloyatida investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish sanoatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №617-sonli Qarori, 22.07.2019 yil.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-oktyabrdagi “Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun shisha idishli mahsulotni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №816-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 8-yanvardagi “Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini

- pasaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5-sonli Qarori.
15. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.
 16. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
 17. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: —O'zbekiston, 2017. - 48 b.
 18. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: : —O'zbekiston, 2017. - 488 b.
 19. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 19 sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.// Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentabr.
 20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma./Nashr uchun mas'ul R.S. Qosimov. - T:—Ma'naviyat, 2018. - 320 bet.
 21. Xotamova I.S., Madraximov G.R. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 252 bet.
 22. Umurzakova Z.S. Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – Andijon.: "Andijon nashriyot-matbaa" MChJ, 2023. 300 bet. ISBN 978-9910-9485-3-4.
 23. Yadgarov A.A., Kasimov A.A. Sanoat iqtisodiyoti va strategiyasi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 332 bet.
 24. Shodmonov E.Sh. Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik. – T.: Iqtisodiyot-moliya nashriyoti, 2020, - 514 bet.
 25. Ro'ziyeva D.I. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022, 268 bet.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.
2. www.uza.uz – O'zbekiston Milliy axborot agentligi.
3. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.
4. www.lex.uz – O'zbekiston qonunchiligi.
5. www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.

